



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 622 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
<i>Gulnar Atakhanova Orinbaevna</i>	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
<i>Amankosova Dinara Gabitovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
<i>Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna</i>	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
<i>Bannayev Qosimjon</i>	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi	34
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
<i>Jabborova Umida</i>	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
<i>Xayrullayev Asliddin Isatullayevich</i>	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
<i>Karimov N. M.</i>	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
<i>Melikova Einora Shuxratovna</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
<i>Nishonova Dilafuz</i>	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
<i>Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna</i>	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
<i>O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
<i>Rasulev Bobirjan Atxamovich</i>	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
<i>Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna</i>	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
<i>Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
<i>Xalilova Shahnoza</i>	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
<i>Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi</i>	
Soliq yuki – mamlakat soliq soliq tizimining asosiy mezonidir	97
<i>Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari	101
<i>Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida hospital pedagogika fanini o'qitishning dolzarb masalalari va uning uslubiy ta'minoti	106
<i>Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna</i>	



Chizma geometriya va kompyuter grafikasi: an'anaviy fan va zamonaviy texnologiyaning uyg'unlashuvi .	111
Raximov A. M., Tairova N. S., Sabirova D. U., Xasanova S. T., Tashpulatov R. X.	
Геймификация в обучении английскому языку на начальном этапе обучения	114
Курбанова Назира Низомиддиновна	
Talabalarda tanqidiy va evristik fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni	117
Adjiev Nayrullo Nazrulloevich	
Konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish metodikasi.....	122
Amirullayeva Barno Abdulhaqovna	
Kimyo o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning tajriba-sinov natijalari.....	126
Artiqov Maqsud Bahodirovich, Babanazarova Ayzada Omirbaevna	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilingvist sifatida shakllantirishda til o'rganish ko'nikmalari va kompetentsiyalarining rivojlanishi	131
Axmadjonova Gulira'no Muxtorjon qizi	
Talabalarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda kooperativ ta'limning metodik yondashuvlari.....	135
Botiraliyeva Gulobar Mahamadismoil qizi	
Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning pedagogik va metodik asoslari	139
Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li	
Teacher-Centered and Child-Centered Methods in Early Childhood Education: Insights From Finland and Uzbekistan	143
Djaparova Gulnoza	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish	150
Do'stov Davron Zulhaydarovich	
Theoretical, Methodological, and Practical Factors of Differentiated Education	155
Ergash Shonazarovich Khasanov	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondoshuv	160
Gulbahor Xamidova	
Mustaqil ta'lim – mustahkam bilim.....	164
Halima Shukurova Sunatullayevna	
Integrating Google Classroom and Project-Based Learning for Enhanced Synchronous and Asynchronous Education.....	168
Inomkhojaeva Shodiyakhon Abdukodirkhoja qizi	
O'quvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	174
Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich	
Hududiy rivojlanishda innovatsion yondashuvlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish yo'llari.....	177
Mo'minov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
O'rta yoshdagi ayollarda harakat faoliyatini rivojlantirishda milliy o'yinlarning pedagogik ahamiyati	184
Mustafoev Sherali	
Pedagogical and Psychological Foundations of Developing Higher-Order Thinking Skills in Students.....	188
Nasimova Zarina Isomiddin kizi	
Pedagogik ijodkorlikning kasbiy professionallikda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	193
Numonova Dildor Umurzoqovna	
Ko'zi oqiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	196
Qarshiboyev Asliddin	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari.....	200
Qilichova Marxabo Xudayqulovna	
The Transformation of Existential Thought in British Literature: Iris Murdoch's Philosophical Humanism and the Reinterpretation of Freedom	204
Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi	
Sportchilarning elektron platformalardan foydalanishning metodik tahlili	209
Saydullayev Zafar Erkinovich	
Adabiy ta'limda estetik tarbiya	216
Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li	
O'qituvchi-trenerning ko'p qirrali kasbiy-pedagogik funksiyalari	220
Sulaymonov Jaxongir Solijonovich	
Uzluksiz kasbiy rivojlanishda art-pedagogikaning o'qituvchilar hissiy farovonligiga ta'siri	223
Suvanova Kamola Raimqul qizi	

Raqamlashtirish muhitida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish	226
<i>Xamidova Komila Maxmudovna</i>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	231
<i>Yo'ichiyev Shaxriyor Xusanovich, O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</i>	
Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода	235
<i>Умарова Гулчехра Абитовна</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlari	238
<i>Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna</i>	
Biologiya ta'limida innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim menejmentining roli.....	241
<i>Allayorova Maloxat Normaxmat qizi</i>	
Integrating Innovative Technologies for the Enhancement of Speech and Communication Skills Among Learners With Intellectual Disabilities in Uzbekistan: Pedagogical Approaches and Developmental Outcomes	244
<i>Donisheva Gulruy Akhrorkulovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash.....	247
<i>Doniyarov Mavlonbek Arabovich</i>	
Kimyoviy birikmalarda bog'lar sonini hisoblashning yangi matematik usullari.....	252
<i>Ergashev Vahob Ergashevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	257
<i>G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida steam fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari	261
<i>Jamolova Sitara Muzaffar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	264
<i>Mamadiyrov Jamol</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar.....	268
<i>Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna</i>	
Para yengil atletikachilarda nayza uloqtirish texnikasini takomillashtirish uslubiyati	271
<i>Qiyomova Shohsanam Yarash qizi</i>	
Difficulties in Enhancing Communicativeness of Pre-Service English Teachers.....	275
<i>Kurbonova Maftuna Fakhriddinovna, Mirzayeva Gulshan Azamatovna</i>	
Principles of Teaching Basic Foreign Language Skills (EFL)	278
<i>Samandarova Gulsara Ismatilloevna</i>	
O'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi	282
<i>Toshpulatova Farida Radjabovna</i>	
Корпоративная культура педагогов и внутренняя стабильность ДОО	286
<i>Буранова Шохноза Абдуразаковна</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии.....	290
<i>Шадиева Нигора Шариповна</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar	295
<i>Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi</i>	
Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash: kompetensiyalar va qadriyatlarining roli.....	298
<i>Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna</i>	
Astronomiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanib o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni	301
<i>Barakayeva Sarvinoz To'liqunovna</i>	
Alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.....	305
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Namozova Sevinch Asqar qizi</i>	
Ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik qadriyatlarining ustuvorligi.....	310
<i>Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning nazariy asoslari	314
<i>Mahmudova Zulfiya Xomitovna</i>	
Pedagogical Methodology Improve Students' Professional Mobility in Acquisition of Specialty.....	319
<i>Khidirova Muhabbat Murodillayevna</i>	



Boshlang'ich sinf ona tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish	322
Ismoilova Surmaxon Amonovna, Yusupova Mohinur	
Qoraqalpoqlarning dehqonchilik marosimlari	326
Orinboyeva Go'zal Polatovna	
The Complexity of Training Teaching Staff for Work in Public Schools Organized in Medical Stations in Uzbekistan.....	330
Inogamova Dilfuza Rakhmatullaevna	
Boshlang'ich ta'lim texnologiya fanini o'qitishda STEM yondashuvi orqali o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.....	335
Jabbarova Zuhra Omondullayevna	
Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni nutqini shakllantirish metodikasi	338
Z. N. Mamarajabova	
5–7-sinf qizlarida raqamli texnologiyalar ta'sirida tarbiya jarayonining o'ziga xosliklari.....	341
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish diagnostikasi: metodlar va natijalar ..	345
Abduxamidova Dilorom Abdumuminovna	
PISA topshiriqlari asosida o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish	349
Axunjanova Shirmonoy Isroiljonovna	
Bo'lajak surdotarjimonlar uchun faoliyat turlarini tanlashda ko'maklashish	354
Dehqanova Muborakxon G'iyosiddinovna	
Mustaqil ta'limni tashkillashtirishda tarjimadan foydalanish jarayonlari	357
Erkayev Elmirza Temirovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining o'rni.....	361
Jumayeva Muxlisa Shokir qizi	
Tasks, Exercises, and Activities in the English Classroom: Differences, Similarities, and Effective Use	366
Qodirov Olim Odilovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalalari	372
Safarova Mohichehra Xonzafarovna	
Malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish masalalari.....	376
Saidova Dilnoza Maripovna	
O'zbekiston va Yaponiya dzyudo trenerlarining mashg'ulot jarayonlarini qiyosiy tahlili.....	380
Sharipov Xabibullo Abduqahhorovich	
"Kompyuter lingvistikasi"ning rivojlanish tendensiyasi.....	386
Xusanboyeva Muxlisa Ikrojon qizi	
Педагогические технологии стратегического развития взаимного сотрудничества организаций дошкольного образования и родителей.....	392
Тухлиев Муслимбек Шерзод угли	
Oliy ta'limda inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish muammolari	397
Dilbar Nurkeldiyeva	
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muasasalarida tarbiyaning o'rni.....	401
Laylo Sharopovna Nurmuxamedova	
Intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvida muloqotning shakllanish xususiyatlari	405
Shahnoza Amirsaidova	
Aqli zaif bolalarga ta'lim jarayonida o'yin faoliyatini shakllantirishning ahamiyati.....	409
Ziyodullayeva E'zoza Ne'matjonovna	
Pedagogik texnologiyalar metodlarini tanlash va qo'llashning umumiy mezonlari	412
Abdullayeva Komila Tursunovna	
Didaktik o'yinlar vositasida 2-sinf o'quvchilarida bog'lanishli nutq ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	416
Askarova Gulayim Arislan qizi	
Yugurib kelib uzunlikka sakrovchilarda tezkorlikni samarali va jadal rivojlantirishni ilmiy asoslash.....	420
Avazov Shukrullo Ibatovich, Nuraliyeva O'g'iloy Shomurotovna, Mustafayev Ismoil Nuralio'g'li	
Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va zaruriyati.....	425
Axmedova Mastura Jamoliddinovna	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tabiatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	430
Azizova Dilnora	

Bo'lajak shifokorlarda tibbiy – deontologik kompetensiyalarni shakllanishida tibbiy amaliyotning ahamiyati.....	435
Babadjanova Gulchexra Baxtiyarovna	
Bolaning aqliy rivojlanishini yoritadigan ko'rsatkichlar	440
Bozorboyev Javlon Davlatali o'g'li	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlari.....	445
Daminova Maftuna Asqarali qizi	
Kreativ pedagogika fani va mantiqiy fikrlash kompetentligi orasidagi bog'liqlik.....	449
Diyora Egamberdiyeva	
Oilani mustahkamlovchi va ajralishiga olib keluvchi omillar	454
Haqberdiyev Jamoliddin Abdug'affor o'g'li	
Quality Management as a Functional and Attributive Characteristic of Modern Management.....	458
Jabbarbergenova Bibimaryam Amangeldievna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik va psixologik jarayonlar	464
Mamedova Maxfuza Erkinovna	
Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda yuridik ta'limning roli: tahlil va takliflar	470
Mansurova Zilola Akromxonovna	
Pedagogik ta'limda klaster yondashuvi: O'zbekiston va jahon tajribasi	474
Nafisa Tokhirova Dilshod qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari: zamonaviy yondashuvlar va innovatsion imkoniyatlarning integratsiyasi asosida shakllanish jarayoni.....	478
Norqulov Lutfullo Mamarajabovich	
Montessori metodikasi va undagi bolalar sensomotorikasini rivojlantirishga doir tajribalar tahlili	484
Parmonova Laylo Iloxomovna	
Molekulyar fizikani modellashtirish orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	488
Q. U. Tog'ayeva	
Milliy tarbiyada raqamli vositalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	493
Qo'shnazarova Nozima Maxmutjon qizi	
Learning Intercultural Communication Through Social Media: the Approach of Modern Students	498
Raxmonqulova Feruza Akmal qizi	
Aqliy rivojlanishda muammolari bor maktab o'quvchilarida geometrik tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslar.....	502
Shodiyeva Navbaxor Xabibulla qizi	
Logopedning kasbiy faoliyatida deontologiya va kompetentlikning roli va ahamiyati	506
Temurova Gulchexra Xudoyqulovna, Isomitdinova Shaxinabonu Zavqiddin qizi	
STEAM ta'limida lego konstruktlorlarining o'rni va ahamiyati.....	511
Toshpulatova Farida Radjabovna	
Diagnostikasi va reabilitatsiya qilishda eshitishda nuqsoni bo'lgan bola va ularning ota-onalari bilan bog'liq muammolar.....	514
Toshpulova Nodira Sultonmurod qizi	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligi o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllari.....	518
Turdiqulova Luiza Zayniddinovna	
O'zbekistonda ESG tamoyillarining ta'limga integratsiyasi: yutuqlar, muammolar va istiqbollari	522
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish	526
Xamidova Muyassar Polsaidovna	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy didaktik prinsiplari.....	530
Yuldashev Shukrullo	
Комплексная методика развития и обучения юных футболистов	536
Ортиков Умиджон Худойбердиевич	
Особенности деятельности детей с нарушением зрения	544
Юсупова Назира	
Integration of Music and Language: Creative Approaches to Teaching English to Music Students	548
Akbarova Moxichexra	



Ingliz tilida yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash metodikasi.....	553
<i>Alimardonova Malika Botir qizi</i>	
Yosh kurashchilarni jismoniy va aqliy rivojlantirishda basketbol o'yinining ahamiyati	560
<i>Haqnazarov Qurbon Qo'shayevich</i>	
Voleybol murabbiylarining innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari	566
<i>Haqqulov Akbar Abdiraupovich</i>	
Sociolinguistic Competence and Intercultural Communicative Competence: Intertwining Concepts and Practical Implications	571
<i>Kuchmurodova Gulnora Khatamovna</i>	
Ilk qadam davlat dasturida steam ta'lim elementlaridan foydalanish imkoniyati	575
<i>Nazarova Aziza Sohib qizi</i>	
Kasbiy rivojlanish jarayonida rahbar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	579
<i>Roziqova Nazokat Alisher qizi</i>	
Deontologik yondashuvning nazariy-pedagogik asoslari va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati	583
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikda fanlararo integratsiya asosida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining metodik salohiyatini oshirish yo'llari.....	586
<i>Xashimova Aziza Alisherovna</i>	
Природа и механизм действия биологических иммуностимуляторов на организм животных	590
<i>Койилова Мехринисо Джураевна</i>	
Badiiy asarlar ustida ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional intellektini shakllantirish mezonlari	594
<i>Jamalova Kamola Shahobiddinovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish asosida fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish	600
<i>Musurmonova Shaxnoza Dilshod qizi</i>	
Futbolchilarda texnik tayyorgarlikni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	606
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Semantik afaziya va uni bartaraf etish yo'llari	611
<i>Umida O'tabasarova Mexmanovna, G'anieva Gulrux Tavakkaljon qizi</i>	
Сравнительный анализ национальных видов борьбы Японии.....	616
<i>Даминов Илхом Аширалиевич</i>	



SEMANTIK AFAZIYA VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Umida O'tabasarova Mexmanovna

Alfraganus universiteti oliy ta'lim tashkiloti dotsenti v.b. (PhD)

G'anieva Gulrux Tavakkaljon qizi

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Defektologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Semantik afaziya, asosan, miya jarohati yoki insult natijasida yuzaga keladigan nutqning ma'no jihatdan buzilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu afaziya turi bemorning so'zlarni to'g'ri tanlashi va ular orasidagi ma'no bog'lanishini saqlab qolishda qiyinchilik tug'diradi. Semantik afaziya bilan og'rigan shaxslar so'zlarning aniq tushunchalarini ifodalashda muammolarga duch keladilar, so'zlarni noto'g'ri ishlatishlari, o'zgartirishlari yoki ularni noto'g'ri kontekstda qo'llashlari mumkin. Maqolada semantik afaziyaning asosiy sabablari, klinik ko'rinishlari, tashxislash usullari va davolash metodlari yoritiladi. Davolash jarayonida individual yondashuvlar, logopediya mashg'ulotlari, kognitiv terapiya va boshqa reabilitatsiya usullari qo'llanib, bemorning so'zlash qobiliyatini tiklashga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bemorlarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash va hayot sifatini oshirishga yo'naltirilgan metodologiyalar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: semantik afaziya, nutq buzilishi, miya jarohati, insult, davolash usullari, logopediya, kognitiv terapiya, reabilitatsiya, klinik tashxis, ijtimoiy integratsiya, fazoviy-konstruktiv apraksiya, murakkab paradigma, sinonim-paradigma.

Abstract: Semantic aphasia is primarily characterized by speech impairment of meaning, which arises as a result of brain injury or stroke. This type of aphasia makes it difficult for patients to select words correctly and to maintain semantic connections between them. Individuals with semantic aphasia often face challenges in expressing accurate concepts, misusing words, altering them, or applying them in an incorrect context. The article highlights the main causes, clinical manifestations, diagnostic methods, and treatment approaches of semantic aphasia. Treatment involves individualized strategies, speech therapy sessions, cognitive therapy, and other rehabilitation methods aimed at restoring the patient's verbal ability. In addition, methodologies to support social integration and improve patients' quality of life are also discussed.

Key words: semantic aphasia, speech impairment, brain injury, stroke, treatment methods, speech therapy, cognitive therapy, rehabilitation, clinical diagnosis, social integration, spatial-constructive apraxia, complex paradigm, synonym paradigm.

Аннотация: Семантическая афазия в основном характеризуется нарушением смысловой стороны речи, возникающим вследствие травмы мозга или инсульта. Данный тип афазии приводит к трудностям при правильном выборе слов и сохранении смысловых связей между ними. Пациенты с семантической афазией часто испытывают трудности в выражении точных понятий, неправильно используют слова, изменяют их или применяют в неверном контексте. В статье рассматриваются основные причины семантической афазии, её клинические проявления, методы диагностики и подходы к лечению. В терапевтической практике изучаются индивидуальные методы, логопедические занятия, когнитивная терапия и другие реабилитационные подходы, направленные на восстановление речевой способности пациента. Также анализируются методики, способствующие социальной интеграции больных и повышению качества их жизни.

Ключевые слова: семантическая афазия, нарушение речи, травма мозга, инсульт, методы лечения, логопедия, когнитивная терапия, реабилитация, клиническая диагностика, социальная интеграция, пространственно-конструктивная апраксия, сложная парадигма, синонимическая парадигма.

KIRISH

Afaziya – bu miyadagi nutq markazlarining ma'lum sabablar natijasida shikastlanishi oqibatida yuzaga keladigan til va nutq buzilishi kasalligi. Afaziya bilan og'rigan odamlar so'zlarni tushinishda, gapirishda, yozishda yoki o'qishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu holatlar ko'pincha miya insultlari, jarohatlar, travmalar, infeksiyalar yoki boshqa nevrologik kasalliklar oqibatida paydo bo'ladi va keltirib chiqaruvchi sabablarning turlariga

ko'ra turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ular kasallikning joylashuvi va darajasiga qarab farqlanadi. Bugungi kunda afaziya inson hayot sifatiga katta ta'sir ko'rsatadigan muhim tibbiy muammo hisoblanadi va uni o'z vaqtida aniqlash hamda davolash samarali reabilitatsiya jarayonini ta'minlash uchun muhimdir. Bu kasallik nafaqat bolalarda, balki ko'p hollarda katta yoshdagi insonlarda ham uchrashi aniqlangan. Kasallik turlari orasida semantik afaziya alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Semantik afaziya masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda, avvalo, nutqning intonatsion va fonetik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Artemovning tadqiqotlarida nutq intonatsiyasi-ning fonetik tahlili afaziya bilan og'rikan bemorlarning nutqni idrok qilish va to'g'ri talaffuz qilish jarayonida sezilarli darajada buzilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, intonatsiya elementlari semantik bog'lanishlarni tiklashda asosiy vosita sifatida ham qo'llanilishi ta'kidlanadi.

Afaziyaning tiklash bo'yicha qo'llanilgan amaliy mashqlar natijalarini o'rganishda Amossova va Kaplina tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar alohida ahamiyatga ega. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, insult va miya jarohatlaridan keyin logopedik mashg'ulotlar orqali nutqni qayta shakllantirish samarali natija beradi. Ayniqsa, kognitiv mashqlar va individual reabilitatsion yondashuvlar nutqning semantik qatlamini tiklashda samarali ekanligi aniqlangan.

Semantik afaziyaning neyropsixologik va lingvistik tahlili masalalari A. A. Axyutina va T. G. Vizel tomonidan keng o'rganilgan. Ularning asarlarida nutqning sintaktik tizimidagi buzilishlar, amnestik qiyinchiliklar va fazoviy-semantik koordinatsiyadagi o'zgarishlar ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, B. S. Vilenkiy va L. S. Volkova ishlarida insultning oldini olish, tashxislash hamda logopediya vositalaridan foydalanish metodlari ko'rib chiqilgan bo'lib, ular semantik afaziyaning davolashda nazariy va amaliy asoslarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot metodologiyasi semantik afaziya bilan bog'liq muammolarni o'rganishda kompleks yondashuvni talab etadi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida klinik kuzatuv, logopedik suhbat va bemorlarning nutq faoliyatini tekshirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlardan foydalanildi. Shuningdek, nevrologik tashxis natijalari, psixologik testlar va yozma nutq namunalari yig'ildi. Tadqiqot jarayonida bemorlarga maxsus topshiriqlar berilib, ularning nutqiy faoliyatidagi qiyinchiliklar qayd etildi. Olingan ma'lumotlar sifat tahlili orqali semantik bog'lanishlarning buzilish darajasi, fazoviy-semantik koordinatsiya va amnestik qiyinchiliklarning namoyon bo'lishi o'rganildi. Statistik tahlil esa nutqiy buzilishlarning chastotasi, takroriy xatolar va reabilitatsiya usullarining samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Shu tarzda yig'ilgan ma'lumotlar umumlashtirilib, semantik afaziyaning tashxislash hamda davolash metodlarini takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Semantik afaziya bosh miyaning nutq sohasidagi dominant chap katta yarimsharlarining tepa va ensa qismlarining zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Bosh miya chap katta yarimsharlari tepa-ensa qismlarining zararlanishida nutqning ma'nosi saqlanadi, so'zning tovush tarkibini izlash kuzatilmaydi, nutq-eshituv xotirasining pasayishi va fonematik eshituvning buzilishi holati kuzatilmaydi. Semantik afaziya depressiv agrammatizm va amnestik qiyinchiliklar, yaqqol ifodalangan fazoviy-konstruktiv apraksiya bilan ko'pgina umumiylikka ega. Chunonchi, afaziyaning bu shaklida murakkab paradigma, sinonim-paradigmalar uchun xarakterli bo'lgan fazoviy-semantik koordinatlarda mo'ljall olish birlamchi buzilgan belgi hisoblanadi.

Ekspressiv va yozma nutq buzilishi

Semantik afaziya nutqni tushunish saqlangan, lekin bemorda vaqt va fazoviy tushunchalar hamda gaplardagi mantiqiy bog'lanishlarni anglashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Og'ir holatlarda bemor o'z tana qismlarini qayerda joylashganini topa olmaydi. Bemor predmetlarning joylashuvini yoki nechanchi qatorda turganini aytib bera olmaydi. Artikulyatsiya tufayli bemor o'n ichidagi sonlarni qo'shib-ayira oladi, ammo o'nliklar ustida bajariladigan amallarni bajara olmaydi. Bemor dialogik nutqda suhbatdoshiga qaratilgan nutqni to'g'ri dasturlashda qiynaladi. Masalan, bemorga "qo'ziqorin yaprog'ining tagidan biroz ko'rinib turibdi" degan gapni qaytarish so'ralganda, u faqat "qo'ziqorin yaprog'" so'zlarini takrorlayveradi. Bemor bu yerda "biroz", "tagidan" so'zlarini umuman tushunmayotganini o'zi tariflab beradi.



Bemorga taqqoslash uchun misollar berilganda, masalan: “Mushuk sichqondan kattami?” yoki “Sichqon mushukdan kattami?” deb so’ralsa, bemor “Men hech narsani tushunmadim” deb javob beradi. Bemorga “ruchka bilan burningni ko’rsat” deyilganida, u ruchkani alohida, burnini alohida ko’rsatadi. Bu kamchiliklarning barchasi bemorlarda predmet va fazoviy tasavvurlarning buzilishidan darak beradi. Semantik afaziyada ekspressiv nutq artikulyatsion jihatdan saqlanadi. Biroq, yaqqol ifodalangan amnestik qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin: bemorga so’zdagi birinchi bo’g’in yoki tovushni eslatib qo’yish yaxshi yordam beradi. Shu sababli bemorlar predmetning kategorial tegishliligi yoki funksiyasini ifodalashning sintagmatik usuliga o’tib oladilar: “baliq yeydigan-chi”, “kesadigan-chi”, “yozadigan-chi”. Semantik afaziya uchun verbal parafaziyalar xarakterli emas, chunki bemorlar bir paradigmani boshqasiga aralashtirmaydilar.

Lug’atning kambag’alligi sifatlarini, ravishlarni, ta’riflovchi iboralarni, sifatdosh va ravishdoshlarni, maqollarni va matallarni kam qo’llashda namoyon bo’ladi. Afaziyaning bu shaklida yozma nutq o’zining kambag’alligi, sintaktik shakllarning stereotipligi bilan farq qiladi; unda ergashgan qo’shma gaplar va bog’langan qo’shma gaplar kam qo’llanadi, sifatlarining qo’llanishi qisqaradi.

Semantik afaziyada hisob-kitob operatsiyalarining qo’pol buzilishi kuzatiladi. Arifmetik amallarni yechishda bemorlar harakat yo’nalishini aralashtiradi, o’nlikdan o’tishda qiynaladilar, ko’p xonali sonlarni eshitib yozishda qiyinchilik sezadilar. Masalan, 108 soni o’rniga bemor 1801 yoki 1108 sonini yozib qo’yishi mumkin, chunki sonlarning tartibini aniqlashda qiynaladi. Hisobning buzilishi vazifa matnlarini tushunishdagi qiyinchiliklarda ham ko’rinadi, chunki ular mantiqiy elementlarni o’zida jamlaydi: ko’p-kam, uzoq-yaqin, necha marta, qanchaga. Bu holat mantiqiy-grammatik konstruksiyalarni simultativ analiz va sintez qilishning buzilishi bilan izohlanadi.

Tushunishning buzilishi

Ko’makchi va fleksiyalar bilan ifodalangan murakkab ma’no va grammatik munosabatlarni tushunishning buzilishi impressiv agrammatizm deb ataladi. Semantik afaziyada oddiy iboralarni tushunish saqlanadi. Bemorlar alohida ko’makchilarning ahamiyatini yaxshi anglaydilar: qalamni qoshiq ostiga yoki qoshiqni pichoqning o’ng tomoniga bemalol qo’ya oladilar, biroq ko’rsatma bo’yicha uchta predmetni joylashtirishda qiynaladilar: “Sanchqidan o’ng va qalamdan chap tarafga qaychini qo’y”. Geometrik figuralarni joylashtirish ularga yanada qiyin bo’ladi. Masalan, “Doira ostiga va kvadrat ustiga kesik chiziq chiz” kabi topshiriqlarni bajara olmaydilar va taqqoslovchi so’z birikmalarida mo’ljol ololmaydilar: “Ahmad Azizdan baland, Nodirdan past. Ulardan qaysi biri eng baland? Kim eng past?” Shu kabi qiyinchiliklar ravish bilan keluvchi taqqoslovchi iboralarni tushunishda ham uchraydi: uzoqroq-yaqinroq, o’ngda-chapda va h.k.



Logopedik korreksion ish

Bu kamchiliklar bilan ishlayotgan logoped nutqni mantiqiy va grammatik tomondan tushunishni rivojlantirishi kerak. Oddiydan murakkabga o'tish tamoyiliga asoslangan holda bemorga geometrik shakllar beriladi va bemor ularning nusxasini chizishni boshlaydi. Keyin logoped bemordan chizilgan shaklning tepasiga, pastiga, ichiga, o'ng yoki chap tomoniga nuqtalar qo'yishni so'raydi. Keyinchalik bemor bu shakllarni kubiklar yoki gugurt cho'plarida yasashni boshlaydi. Mashqlar murakkablashtiriladi: logoped bemorga "gugurt cho'pini qog'ozning markaziga qo'ying, qo'yilgan cho'p yoniga ikkinchi cho'pni qo'ying" deb topshiriq beradi va shu bilan birga ko'p-kam, to'q-och kabi tushunchalarni real holatda qo'llashni talab qiladi.


Bu mashqlardan so'ng bemor o'z tana qismlarining fazodagi joylashuvini o'rganadi. Bemor logoped bilan birga harakatli mashqlarni bajaradi: "Oyog'imiz bilan oldinga", "qo'limizni tepaga", "boshimizni o'nga", "boshimizni chapga", "boshimizni pastga", "oyog'imiz bilan orqaga" kabi topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlaydi. Keyinchalik logoped bemordan hech qanday ko'rgazmali qurolsiz quyidagi topshiriqlarni bajarishni talab qiladi:

- o'ng qo'lingizni ko'rsating;
- chap oyog'ingiz bilan orqaga qadam tashlang;
- boshingizni o'nga buring.

Bunda bemor tana qismlarining joylashuvini tushungan holda topshiriqlarni bajarishi kerak. Gapdagi grammatik va leksik bog'lanishlarni tushunish ham real topshiriqlar yordamida shakllantiriladi. Masalan, bemorning oldiga ikki predmet qo'yilib, "ruchkani daftarning ustiga qo'ying", "ruchkani daftarning ichiga qo'ying", "ruchkani daftarning tagiga qo'ying" kabi topshiriqlar beriladi. Keyinchalik bemor bu topshiriqlarni mustaqil bajaradi va qilgan ishini logopedga izohlaydi. Mashqlar murakkablashtirilganda bemorga ikki predmetni ikki xil tarzda tasvirlash o'rgatiladi. Masalan:

1. chiroq stolning tepasida osilib turibdi;
2. stol chiroqning tagida turibdi.

Vaqt o'tishi bilan bemorga shakllarni ichiga shakl chizish topshirig'i beriladi: "Doirani ichiga uchburchakni chizing", "doirani ustiga to'rtburchak chizing" va undan "Bu nimaga o'xshaydi?" deb so'raladi.



Bemorga sujetli rasm asosida gap tuzish, shu gap ichidan ma'no anglatuvchi so'zni ajratib olish, ish-harakatni bildiruvchi fe'lni topish va asosiy predmet nomi bilan bog'lash hamda predmet xususiyatlarini bildiruvchi so'zlarni aniqlash topshiriqlari beriladi. Masalan: "Go'zal qizil qalamni stol ustiga qo'ydi."

1. ot
2. fe'l
3. sifat

Bemorga tugallanmagan gap beriladi: "Bugun qiziqarli kitobni o'qidi." Bemor bu gapni savol tarzida to'ldirishi kerak: "Kim o'qidi?", "Qanday kitob o'qidi?"

Bemor mantiqiy bog'lanishlarni tushunishi uchun quyidagi savollarga javob berishi talab qilinadi:

- "Qizingizning onasi sizga kim?"

Keyin logoped yordamchi savollar beradi:

1. Bu yerda kim haqida gap ketyapti?
2. Kim?
3. Qizingizning onasi sizga kim?



Semantik afaziya belgilari sensor afaziyaga o'xshash bo'lgani sababli nutqni tiklash jarayonida noverbal va verbal usullar qo'llanadi. Bemorga maqol va iboralarini tushunishi uchun yo'naltiruvchi savollar beriladi. Masalan: "Boshi berk ko'chaga kirib qoldim", "Chuchvarani xom sanabman", "Tarvuzim qo'ltig'imdand tushdi" kabi iboralar keltirilib, ularning ma'nosini tahlil qilish so'raladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Semantik afaziya – bu nutq faoliyatining murakkab buzilishlaridan biri bo'lib, bemorning so'zlar ma'nosini anglash va ularni to'g'ri kontekstdan foydalanish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat ko'pincha miya sohasidagi shikastlanishlar, insult yoki boshqa nevrologik kasalliklar natijasida yuzaga keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, semantik afaziyani erta aniqlash, to'g'ri tashxis qo'yish va tizimli reabilitatsiya choralarini ko'rish bemorning nutq faoliyatini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada bayon etilganidek, logopedik mashg'ulotlar, kognitiv va neyropsixologik yondashuvlar, shuningdek, zamonaviy terapevtik usullar yordamida semantik afaziya bilan og'rigan bemorlarning kundalik hayotga moslashuvchanligini oshirish mumkin. Bemor va uning yaqinlari bilan olib boriladigan psixologik hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash davolash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, semantik afaziyani bartaraf etish kompleks va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Har bir bemorga individual yondashish, davolash va reabilitatsiya jarayonlarini uzluksiz davom ettirish ularning sog'lig'i va hayot sifatini yaxshilashda muhim omillardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Артемов, В. А. Речевая интонация. Экспериментальная фонетика / В. А. Артемов // Вып. 3. – Минск, 2008. – С. 196–213.
2. Амосова, Н. Н., Каплина, Н. И. Практические упражнения для восстановления речи у больных после инсульта, черепно-мозговой травмы и других заболеваний головного мозга / Н. Н. Амосова, Н. И. Каплина. – Москва: Астрель, 2009.
3. Ахутина, Т. В. Поражение речи. Нейролингвистический анализ синтаксиса / Т. В. Ахутина. – Москва: МГУ, 2009.
4. Бейн, Э. С., Бурлакова, М. К., Визель, Т. Г. Восстановление речи у больных с афазией / Э. С. Бейн, М. К. Бурлакова, Т. Г. Визель. – Москва: Медицина, 2002.
5. Блыскина, И. В. Комплексный подход к коррекции речевой патологии у детей. Логопедический массаж: методическое пособие для педагогов дошкольных образовательных учреждений / И. В. Блыскина. – Санкт-Петербург: Детство-Пресс, 2011.
6. Балунев, О. А., Кушниренко, Я. Н. Динамика функционального состояния больных, перенесших инсульт // Журнал неврологии и психиатрии. – № 6, 2000.
7. Виленский, Б. С. Инсульт: профилактика, диагностика и лечение / Б. С. Виленский. – СПб., 1999.
8. Выготский, Л. С. Собрание сочинений: в 6-ти томах. Т. 6. Научное наследство / Под ред. М. Г. Ярошевского. – Москва: Педагогика, 1984. – 61 с.
9. Визель, Т. Г. Основы нейропсихологии / Т. Г. Визель. – Москва, 2006.
10. Визель, Т. Г. Как вернуть речь / Т. Г. Визель. – Москва: ТЦ Сфера, В. Секачев, 2005.
11. Волкова, Л. С. Логопедия / Л. С. Волкова. – Москва, 2016.
12. Изучение и коррекция речевых расстройств // Межвузовские статьи, научные труды. – [Электронный ресурс]: <https://elibrary.ru/item.asp?id=25799424>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.